



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 9-iyul

Nº 2148

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Hasanov Shahobiddin Gulyamovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Termiz tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Safarov Mirmuxsin Mirkomilovich – odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov